



**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAQTASHNING FUNKSIONAL  
SEMANTIK MAYDONI.**

**Maxmudova Umida Farxadovna**

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Univaesiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7181112>

Annotatsiya: tillardagi maqtashning funksional semantik maydoniga kiruvchi so'zlar, so'z birkmalari hamda frazologik birliklar.

Kalit so'zlar: maqtashning funksional semantik maydoni, sotsiolingvistika, lingvokulturalogiya, so'z birikmalar, frazalagik birkmalar.

Bugungi kunga kelib, prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'limga, ilm rivojlanishiga juda katta e'tibor berib, uni uni jahon standartlari darajasiga yetkazish uchun, ilm-fan ravnaqi uchun yangi va yosh bilimli kadrlar ishlab chiqarish bo'yicha juda ko'p forum va shu kabi turli konferensiyalar o'tkazib yoshlarga yo'l ko'rsatish kerakligini ko'p bora takidlamodalar. Zotan, ta'lim jarayonini, o'qitish sifatini tubdan yaxshilash davlatimiz olib borayotgan ko'p qirrali siyosatda asosiy vazifalardan biri bo'lib qoldi. Uni amalga oshirish esa ma'lum mavzu doirasida keng va atroflicha bilim beradigan hamda bu bilimlarni milliy istiqloq g'oyalari bilan, milliy mafkura va dunyoqarash hamda uzoq yillar davomida shakillangan ma'naviyatimiz bilan uzviy bog'lay oladigan darsliklar, o'quv qollanmalari va ilmiy izlanishlar zarur.

Bugungi kunda rivojlanib kelayotgan kognitiv tilshunoslik, til va madaniyat, til hamda jamiyat bilan bog'liq bo'lgan lingvokulturologiya, pragmatika, Sotsiolingvistika, etnolingvistika sohalaridagi ilmiy izlanishlar aynan so'zlar, so'z birkmalari hamda frazeologik birliklarning keng qirrali tahlilini taqozo etmoqda.

Ma'lumki, tilda frazalagik birliklarning qo'llanilishi mazkur millat yoki elatning ma'naviy hamda madaniy xayoti, urf - odatlari, tarixi va shu kabi boshqa xususiyatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Frazologik birlikmalarda xalqning madaniyati, yashash tarzi va nixoyat maqtashning o'z ifodalanishi xam o'z aksini topgan.

Maqtashning funksional-semantik maydonining (MFSM) qiyosiy tadqiqi tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biridir. Hozirda tillarida maqtashning funksional-semantik maydonini yaxlit tarzda o'rganishga bag'ishlangan ma'lumotlar juda ham oz. Tilshunoslikda maqtashning funksional-semantik maydonining sotsiolingvistik, lingvokulturologik va gender xususiyatlarini shu kunga qadar juda ham oz qismi tadqiq etilgan. Bunga sabab uning tilda bajaradigan funksiyasini boshqa kategoriyalarga tegishli deb qarab





kelinishidir. Tilshunoslikda mazkur muammo o'z yechimini topishni talab qiladi.

Mazkur ishda "maydon" termini qo'llanilar ekan, ushbu nomlanishdan foydalanilganda mohiyati bo'yicha bir-biri bilan bevosita semantik jihatdan bog'liq bo'lgan ma'lum bir tildagi so'zlar, so'z brikmalari va frazeologik birliklar maydoni nazarda tutiladi.

"Semantik maydon" termini birinchi bo'lib G. Ipsen tomonidan qo'llanilgan. Tillarni qiyosiy o'rganishda maydon nuqtai nazaridan, nazariy jihatdan yondashish juda ham muhimdir.

A. Abduazizovning ta'kidlashicha, "semantik yoki tushuncha maydoni" ma'nolari bilan bog'langan so'zlarni birlashtiradi. Bunday so'zlar, odatda, bir leksik-semantik guruhni tashkil qiladi.

A. Bondarkoning fikricha, funksional-semantik maydon (FSM) bir guruhga kiruvchi umumiy semantik funktsiya (yadro) asosida birlashuvchi leksik, grammatik, leksik-sintaktik kabi vositalarni o'z ichiga oladi. FSM quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

a) muayyan FSMga kiruvchi til birliklari umumiy semantik funktsiyaga egadir; b) ularning tarkibida faqat leksik emas, balki grammatik birliklar ham mavjud bo'ladi. Strukturasi jihatidan esa yadro va periferiyalardan tashkil topadi.

Shundan kelib chiqqan xolda maqtash ma'nosini ioda etuvchi so'zlar, so'z brikmalari va frazeologik birliklar bir funksional semantik maydonni tashkil etadi.

Kognitiv tilshunoslik yo'nalishi maqtash mavzusini o'rganishga xar tomonlama kompleks yondashishni talab etadi. Shu sababli MFSMning sotsiolingvistik, gender va lingvokulturologik xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. MFSMning kognitiv mohiyatini, dunyoni ko'rishning maqtashda aks etishini ingliz va o'zbek tillarida o'rganish nixoyatda dolzarbdir. Xolbuki dunyoda xamma narsani faqat qiyoslash orqali anglaymiz. Qiyoslash xar qanday fikr yoki borliqni tushunishning asosidir.

Maqtash boshqa stilistik vositalardan farqli ravishda juda kam tadqiq etilgan. Jumladan, shu kunga qadar ingliz va o'zbek tillarida maqtashning funksional semantik maydoni lingvokognitiv aspektida aloxida monografik yo'nalishyetarli darajada tadqiq etilmagan.

Ingliz va o'zbek tillarida maqtash ma'nosini o'ziga xos kuchaytiruvchi vositalar orqali, xis xayajonning ortishi natijasida yuqori pog'onalarga ko'tarilishi aniqlanadi. Bu mavzu olimlar tomonidan keng tadqiq etilmagan bo'lsada, ayrim tadqiqotchilar ilmiy ishlarida bu borada o'z fikrlarini qisqacha berib o'tganlar.





Gender mavzusi turli soxalarda o'rganilar ekan , olimlar, mutaxasislar bu atamaga xar xil fikr va izoxlar bilan yondashdilar.

Masalan: I.S. Klesiana "gender " atamasini "erkaklrga xos" va "ayollarga xos" tushunchalarga mos keluvchi xulq - atvor modellari va xarakter xususiyatlari to'g'risida andozalashtirilgan tasavvurlardir, degan fikr bilan izohlaydilar.

Tilshunoslikda gender bo'yicha ko'pgina milliy izlanishlar olib borilgan (R.Lakoff, M.alaviya, A.V. Kirilini, V.Potapov, D.U. Ashurova, M.J.Narzieva, M.I. Rasulova, S.d. Bagisheva, M.N.Xolbekov, M.S.Saidova, E.M. Fayzullayeva, S.Akbarova va boshqalar).

M.I. Rasulovanini fikriga ko'ra, gender butunlay qotib qolgan tushuncha emas, balki u doimo insonlar ta'sirida o'zgarib turadi va u ijtimoiy xayot bilan bog'liqdir.

D.U. Ashurovaning takidlashicha, tilshunoslikda gender yo'nalish tilni erkak va ayollarga xos bo'lgan tilning ijtimoiy va madaniy xususiyatlari bilan bog'lab o'rganishdir.

Umuman tilning gender farqlanishi qachondan va qanday boshlandi? Balki bu xodisa biologik sabablarga ega bo'lgan xodisadir?

Mazkur savollarga R.Lakoff ning izlanishlaridan javob topishga musharraf bo'lindi. R. Lakoff quydagicha fikirlarni beradi: "bolalar chaqaloqlik davrlaridan boshlab , avval ayollar tilini o'rganadilar, chunki bu davr ichida onalar ular bilan deyarli uzluksiz birga bo'ladilar. Bog'chalik davrlarida ularning tilida unchalik farq sezilmasa-da, 10 yoshlar atrofida o'g'il bolalar o'g'il bolalar bilan, qiz bolalar esa qiz bolalar bilan do'st bo'lish va guruxlanish kelgan davr, aynan tilning ikki yo'nalishda ketishining asosiy boshlang'ich nuqtasi xisoblanadi. Qizlar ayollar tilida gapirishni davom ettirsalar-da , o'g'il bolalar esa so'z boyliklarini chetdan o'zlashtira boshlaydilar. Qiz bolalar uchun qo'pol gapirish, muloyim so'zlashmaslik kabi xususiyatlar uyat bo'lganligi sababli ular kattalar tarafidan tez - tez tanbex eshitishlari natijasida ayollar tilida qoladilar. Bog'cha yoshidan boshlab o'g'il bolalar tashqi dunyo xaqida qiziqqa boshlaydilar (garaj, binolar urushlar kabi narsalarga). Qizlar esa o'zlarining ichki dunyolarida qoladilar (masalan kim kimning do'stiyu, kimning kiyimi chiroyli kabi fikrlarda) ".

Shuni takidlash joizki, ingliz va o'zbek tillarida ayollar nutqidagi maqtash erkaklar nutqiga qaraganda kuchli va xis xayajonga to'laroq ifoda etilishi xamda ayollar maqtashga doir jummalarni uzunroq tuzishlari aniqlangan. Ingliz tilidan farqli o'laroq , o'zbek tilida ayollar fe'l asosida yasalgan modal so'zlardan foydalanishlari ma'lum bo'ldi. Ingliz va o'zbek tillarning erkaklar nutqida





maqtash oddiy ko'rinishga ega, adabiy tilde esa aksincha, stilistik bo'yoqdor , kuchaytiruvchi va uslubiy vositalar orqali ifoda etilishi namoyon bo'lgan. Ingliz ayollari o'z yorlariga she'riyatda maqtash ma'nosini ifoda etuvchi jummalarni tuzishda ustundir. Aksincha o'zbek ayollari sharq madaniyatiga xos bo'lgan "ibo", "xayo", "uyat" kabi tushunchalar sababli adabiy tilde erkaklarga qaratilgan maqtashni extiyotkorlik bilan tanlaydilar . Qiyoslanayotgan tillarda erkaklarga oilada tutgan o'rinlari, yani farzand , sevgili, oila boshlig'I sifatida maqtash qo'llansa ayollarga esa ko'proq tashqi ko'rinish va xarakterlariga ko'ra ifoda etiladi

Xulosa qilib aytganda tillarda MFSMning sotsiolingvistik, gender va lingvokulturologik xususiyatlari mavzusiga qiyosiy taxlil yordamida yondashish lozim. Bunday yondashuv qardosh bo'lmagan tillarda maqtash ma'nosining ifoda etilishi va ularning milliy madaniy xususiyatlarini o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Yusupov U.K. "теоретические основы сопоставительной лингвистики". – Т.: fan, AN RUz, 2007, - В. 39 – 48.
2. Abdulazizov. A.A. tilshunoslik nazariyasiga kirish. Т.: sharq 2010
3. Bondarkov A.B. "Функциональная грамматика". – Л.; Наука, 1984
4. Samigova X.B dissertasiya ishi. 2010.
5. Lakoff R. "language and women's place. – New York : Harper Colophon Books, 1975.-pp 5-64 "

